

TALABALAR BILAN ISHLASHNING SAMARALI USULLARI

Mamatova Marhabo Halimboy qizi

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti tyutori


E-mail: mamatovamarhabo161@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Talabalar bilan ishlashning samarali usullari hamda tyutor va talaba munosabatlari, tyutorning ta’lim muassasalaridagi majburiyatlari va vazifalari, tyutorlik tizimi qanday maqsadlarga yo‘naltirilganligi va oliy ta’lim muassasasida tarbiya jarayonini tizimli va samarali amalga oshirishning muhim shakli va vositasi ekanligi va talabalarning shaxsiy rivojlanishiga, ta’lim muassasasi, respublika va xalqaro miqyosdagi tanlov va olimpiadalarda munosib ishtirok etishiga, shuningdek, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishiga ko‘maklashuvchi faoliyat ekanligi haqida ma’lumotlar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Tyutor, ta’lim muassasalari, talaba, ta’lim, malaka, ko‘nikma, ta’lim innovatsiyasi, kasbiy faoliyat.*

Hozirgi globallashuv sharoitida barcha sohalarning tayanchi, fundamenti — ta’limga borib taqaladi. Chunki aynan ta’lim dargohlaridan jamiyat uchun kerakli va uni boshqaradigan yetuk mutaxassislar yetishib chiqmoqda. Shu jihatdan, zamon talablariga mos, irodali, har tomonlama mulohazali, manfaatlari bunyodkorlik g‘oyasiga qaratilgan yosh kadrlarni tarbiyalash bugungi kun ta’lim muassasalari oldida turgan dolzarb vazifalardan sanaladi. Tyutorlik tizimi ham ana shu maqsadlarga yo‘naltirilgan. U oliy ta’lim muassasasida tarbiya jarayonini tizimli va samarali amalga oshirishning muhim shakli va vositasidir. Tyutor esa talabalarning shaxsiy rivojlanishiga, ta’lim muassasasi, respublika va xalqaro miqyosdagi tanlov va olimpiadalarda munosib ishtirok etishiga, shuningdek, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishiga ko‘maklashuvchi pedagog bo‘lib, u yigit-qizlarni kasbga

yo‘naltirish, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, turli ilmiy to‘garaklarga jalb etish hamda muammo va kamchiliklarini o‘rganib, ularga atroflicha echim topish bilan shug‘ullanadi. Har qanday yangilik kabi bu yo‘nalishning ham kelib chiqish tarixi bor. Ko‘p manbalarda ta’kidlanishicha, dastlabki tyutorlar XII asrda Angliyaning Oksford va Kembrij universitetlarida paydo bo‘lgan.



Atama ingliz tilidan olingan va “uy o‘qituvchisi, o‘qituvchi, murabbiy, vasiy” degan ma’nolarni anglatadi. “Tyutorlik” so‘zi insonning shaxsiy ta’limini qo‘llab-quvvatlashni anglatadi. Bu juda nozik, “xususiy” ish faoliyatidir. Rus tadqiqotchisi N.V.Ribalkinaning fikriga ko‘ra, XVI asr oxiriga kelib tyutor universitet ta’limi tizimida qo‘l ostidagi talabalarning tarbiyasiga mas’ul bo‘lgan muhim shaxsga aylanadi. XVII asrda tyutor faoliyati ko‘lami yanada kengayib, endilikda unga ta’lim berish vazifalari ham yuklanadi. U talabaga qaysi amaliy mashg‘ulot va ma’ruzalarga kirishni aniqlab beradi, talabalar darslarni qoldirmay yaxshi o‘qishlari va imtihonlarga

tayyor bo'lishlarini nazorat qilib boradi. XVII asrdan boshlab tyutorlik tizimi rasman ingliz oliy ta'limi tizimining ajralmas qismi sifatida tan olinib boshlagan. Bugungi kun ma'lumotlariga qaraganda, zamonaviy Oksfordda 90 foiz, Kembrijda esa 75 foiz tyutorlar 1 yoki 2 talaba bilan ish olib boradi. Ular maxsus ma'lumotga ega bo'lmasalarda, talabalarga ham o'qish davomida, ham ta'til paytida rahbarlik qilish, ma'nan ustozlik qilish kabi vazifalarga mas'ul. Aniqrog'i, tyutor ishining asosiy shakli talaba bilan individual va jamoada ishlash yoki unga ta'lim-tarbiya maslahatchisi bo'lishdan iborat. Tyutorga yetakchilik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, intiluvchanlik, notiqlik mahorati, muloqatga kirishish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan ishlash bo'yicha malakaga ega bo'lish, ta'lim-tarbiya jarayoniga doir normativ-huquqiy hujjatlarni bilish kabi bir qator umumiy talablar qo'yiladi. Hozirgi vaqtda pedagogik psixologiya olimlari tomonidan o'rganiladigan va hal qilinadigan muammolar doirasi sezilarli darajada kengayib bormoqda. Bugungi kunda nafaqat umuminsoniy bilim, ko'nikma va malakalarning yaxlit tizimini shakllantirish, balki kasbiy faoliyatni malakali va mohirona amalga oshirishga tayyor va qodir mutaxassisni shakllantirish ham ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Bu, birinchi navbatda, zamonaviy ijtimoiy o'zgarishlarning dinamikligi va ta'limning innovatsiya va o'zgaruvchanlik yo'nalishida rivojlanishi bilan bog'liq. Davlat buyurtmasi aniq belgilashga qaratilgan ta'lim mazmunidagi ustuvor vazifalarni har bir shaxsdan zamonaviy davlatda talab qilinadigan fazilatlar va ta'lim salohiyatini anglashi lozim. Natijada, ta'lim muassasalarining shtat ro'yxatiga talabalarning shaxsiy ehtiyojlari bo'yicha ishlarni o'z ichiga olgan mutaxassislarni kiritish zarurati paydo bo'ldi. Aynan Shu sababli, zamonaviy ta'limni isloh qilishning sezilarli tendentsiyalaridan biri yangi ta'lim kasblarining paydo bo'lishi bilan bog'liq. Shunday qilib, ta'lim muassasalari xodimlarida yangi lavozim - tyutor joriy etildi.



Tyutor — talabalarining shaxsiy rivojlanishiga, universitet, respublika va xalqaro miqyosdagi tanlov va olimpiadalarda munosib ishtirok etishiga, shuningdek, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishiga ko‘maklashuvchi inson bo‘lib, u yigit-qizlarni kasbga yo‘naltirish, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, turli ilmiy to‘garaklarga jalb etish hamda muammo va kamchiliklarini o‘rganib, ularga atroflicha yechim topish bilan shug‘ullanadi. TDYUda rektorining buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Toshkent davlat yuridik universitetida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi nizomda tyutorlar asosiy faoliyat yo‘nalishlari, huquq va majburiyatlari, maqsad va vazifalari ko‘rsatib o‘tilgan. Nizomga ko‘ra, tyutorlarning asosiy maqsadi — ta‘lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda universitet va talabalar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, talabalarining universitet hayoti va ta‘lim jarayoniga moslashishiga ko‘maklashish, ularga uslubiy, ijtimoiy va psixologik yordam ko‘rsatish va talabalarda tanlagan kasbga muhabbatni oshirishdir. Shu bilan birga ular yigit-qizlarning dars mashg‘ulotlarini muntazam tahlil qilib boradi va sifatini oshiradi,

ularning darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishini ta'minlaydi hamda ijtimoiy ahvolidan doimiy xabardor bo'lib turadi. Tyutorlar ma'naviy-ma'rifiy va ahloqiy-tarbiya, o'quv va o'quv-uslubiy hamda ilm-fan, innovatsion va ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarida o'z faoliyatini olib boradi. Har bir tyutor o'ziga birlashtirilgan guruh talabalarini besh muhim tashabbus doirasida tashkil etilgan klub va to'garaklarga jalb etib boradi hamda ularning ijodiy qobiliyati va iste'dodini namoyon etishi uchun imkon yaratadi. Talabalarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi, ularning ta'lim olishi, ilm bilan shug'ullanishi, yashashi va dam olishi uchun sharoitlar yaratishga ko'maklashadi va bu boradagi yangiliklardan xabardor qilib boradi. Shuningdek, yigit-qizlarning o'quv intizomini mustahkamlash, ularda ijodiy fikrlash, halollik, to'g'ri so'zlik kabi xislatlarni shakllantirish borasida tizimli ishlarni yo'lga qo'yadi. Iqtidorli va iste'dodli talabalarni aniqlab, ularning turli tanlov va olimpiadalarda munosib ishtirok etishiga hamda talabalarning loyiha va startaplarini amalga oshirishga ko'maklashadi. Bundan tashqari, talabalarning darslarni o'zlashtirish darajasini nazorat qilib boradi, ularning innovatsion ta'lim texnologiyalari va o'quv-uslubiy materiallar, axborot-resurslari bilan ta'minlash va ushbu manbalardan keng va unumli foydalanishi uchun zamin yaratadi. Shu bilan birga tyutorlar talabalarni o'ylantiradigan qator masalalar, xususan, talabalarni turar joy bilan ta'minlash, qoldirilgan darslarni o'zlashtirishiga yordam berib boradi. Har bir tyutor o'ziga birlashtirilgan akademik guruhlarining darslarini, talaba davomatini va dars sifatining monitoringini olib borish maqsadida kuzatish, talabalarga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish, TTJga joylashishi uchun e'lon berish va bu boradagi komissiya yig'ilishida talabaning ishtirokini ta'minlash, talabaga tavsifnoma va akademik ta'til berish masalasini hal qilishda ishtirok etish, ularni rag'batlantirilishi yoki jazolanishi, turli stipendiyalarga tavsiya qilishda xulosa va fikrnoma berish huquqiga ega. Shuningdek, har bir tyutor talabalarning sha'ni va qadr-qimmatini, obro'sini hurmat qilish, ularning jismoniy, ruhiy va psixologik holatidan muntazam xabardor bo'lish, o'quv, ma'naviy va ilmiy faoliyatini monitoring qilib borish, yigit-qizlarning darslarda ishtirokini nazorat qilish, yoshlarning ota-onalari va o'zi bilan doimiy muloqot qilib borishga majburdir. Tyutor

bilan talaba hamkorligida ularning bir birlarini munosabat sub'ekti sifatida qabul qilishda kommunikatorlik jihatlari yetakchi o'ringa ega. Chunki bugungi kunda pedagoglarning rasmiy-konvensionallik oralig'ini o'zida mujassamlashtirgan, oliy ta'lim muassasa sub'ektlarining muloqot darajalari va bir-biriga yaqinligi individual taktlarga nisbatan guruhiy yaqinlik bir muncha tarqoqdir. Tyutorning talabalarga nisbatan intilishi ham rasmiy darajada bo'lib, tyutor ular bilan individual holatda ham, guruhiy holatda ham hamkorlikda rasmiylik yetakchilik qiladi.



Xulosa:

"Tyutor-talaba" hamkorligi natijalari rasmiy darajada o'zaro hurmat va ishonch shakliga ko'chib o'tishi yuqori ahamiyatga molik voqelik sifatida e'tirof etiladi. Demak, tyutor bilan talabalar hamkorligining har ikkala sub'ektlari faoliyati maqsadlarining uyg'unlashuvi o'zaro simpatiya va empatiya, o'zaro hurmat va qo'llab quvvatlash tamoyillarini vujudga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Pedagogika». R.Mavlonova, O.To‘raeva, K.Xolikberdiev. Toshkent. «O‘qituvchi». 2002
2. «Pedagogika». Q.Qosnazarov, A.Pazilov, A.Tilegenov. Nukus. 2010
3. «Pedagogika». N.G‘aybullaev, R.Yodgorov, R.Mamatqulova, Q.Toshmuratova. Toshkent. 2000 yil
4. «Pedagogik psixologiya». X.Ibragimova, A.A.Yuldasheva, X.Bobomirzaev. Toshkent. 2009
5. «Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi». D.Tajiboeva, A.Yo‘ldosheva. Toshkent. 2009.
6. www.yuz.uz